

***Sattarov Qarshiboy Norqulovich***

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston.*

**Anotatsiya:** *Futbol* (inglizcha: football; foot— „*oyoq*“, ball— „*to'p*“) — sport o'yini. O'yindan maqsad-to'pni raqib darvozasiga kiritish. Bunga har bir jamoadagi darvozabon xalaqit berishga intiladi, unga o'z darvozasi yaqinidagi jarima maydonchasi ichida *to'pga qo'l bilan teginish ruxsat etilgan*. Boshqa barcha o'yinchilarga, shuningdek o'z jarima maydonchasidan tashqariga chiqqan darvozabonga ham bunday huquq berilmagan. *To'p uchun kurashda chalib yiqitish, raqibga zarba berish kabi kuch ishlatishlar ta'qilganadi*. Agar o'yinchi *to'pga qo'lidan tashqari tanasining istalgan boshqa yeri (odatda oyog'i)* bilan istalgan vaqtida zarba bera oladigan holatda bo'lsa, o'yinchi *to'pni egalladi, deb hisoblanadi*.

**Kalit so'zlar:** *Futbol* Braziliya, Germaniya, Italiya, Argentina, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda keng rivojlangan.

**Kirish:** Odatda futbol to'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonda o'ynaladi. Har bir jamoa 11 futbolchidan (10 ta o'yinchi va bitta darvozabon) tashkil etiladi. Alovida bir futbol o'yini match, deb atalib, har biri 45 daqiqa davom etuvchi taymlardan iborat bo'ladi. Birinchi va ikkinchi taymlar orasida jamoalar o'rin almashishadi. Bundan tashqari shunday futbol turlari borki, ulardagi o'yinchilar soni kamroq bo'lishi mumkin — jumladan plyaj futboli (qumda o'ynaladi), mini-futbol (maxsus qoplamlari zalda o'ynaladi), mahalla futboli (har qanday maydonda har qancha o'yinchilar bilan o'ynaladi).

Darvozalar hajmi maydon hajmiga mutanosib bo'ladi. Futbol ikki darvoza (7,32 x 2,44 m) li maxsus maydon (90—120 x 45—90)da *to'p bilan* jamoa bo'lib o'ynaladi. Futbol to'pining og'irligi 410—450 g, aylana diametrining uzunligi 68—70 sm, o'yinning asosiy vaqt 90 daqiqa (45 daqiqadan 2 bo'lim, 12—15 daqiqa tanaffus). Futbolga o'xshash o'yinlar miloddan avvalgi Misr va Sharq

mamlakatlarida ma'lum bo'lgan, keyin Yevropaga o'tgan. 1848-yilda Buyuk Britaniyadagi Cambridge universiteti o'qituvchilari futbolning dastlabki zamonaviy qoidalari ishlab chiqishgan. 1857-yilda shu mamlakatdagi Sheffild shahrida ilk futbol klubi tashkil etilgan. 1863-yilda Angliya futbol uyushmasi tuzilib, futbol qoidalari tasdiqlangan. 18-asrning oxiri — 19-asrning boshlarida Yevropa va Janubiy Amerika davlatlarida ham futbol uyushmalari tashkil kilindi. 1896-yil futbol olimpiada o'yinlari dasturiga kiritildi. 1904-yilda xalqaro futbol federatsiyasi — FIFA tuzildi. Futbol Braziliya, Germaniya, Italiya, Argentina, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda keng rivojlangan.

O'zbekistonda 20-asr boshlaridan zamonaviy futbol qoidalari asosida o'yinlar o'tkazilgan. 1912-yilda Qo'qonda birinchi futbol jamoasi tuzildi. Keyinroq Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Andijon, Namangan shaharlarida ham futbol jamoalari paydo bo'ldi. 20-asrning 20-yillaridan mamlakatimizda turli toifadagi musobaqalar (1937-yildan O'zbekiston birinchiligi) muntazam ravishda o'tkazila boshlandi. 1956-yilda Toshkentda "Paxtakor" jamoasining tashkil etilishi va shu nomdag'i stadion qurilishi respublikada futbolning rivojlanishiga turtki bo'ldi. 20-asrning 80-yillaridan O'zbekistonda futbolchilarning yangi avlodini tarbiyalashga kirishildi.

1959-yilda tashkil etilgan O'zbekiston futbol federatsiyasi 1992-yilda (keyin 2001-yilda) qayta ro'yxatdan o'tdi. 1992-yildan futbol bo'yicha O'zbekiston milliy championati va kubogi, turli toifadagi musobaqalar o'tkazib kelinyapti, futbol jamoalarining xalkaro uchrashuvlarda ishtirok etishi ta'minlanayapti. Vazirlar Mahkamasining „O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida“ (1993-yil 18-mart) hamda „O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida“ (1996-yil 17-yanvar)gi qarorlari futboldagi yutuqlarga zamin yaratdi. Farg'onaning "Neftchi" klub MDH kubogining finaliga chiqdi (1994), „Paxtakor“ klub Osiyo championlar ligasi yarim finalida o'ynadi (2003, 2004), mamlakat yoshlar terma jamoasi jahon championati final bosqichida qatnashdi (2003), O'zbekiston milliy terma jamoasi Osiyo o'yinlari (1994) va Afrika Osiyo o'yinlari (2003) g'olibi bo'ldi. Hozirgi

kunda O‘zbekistonda 36 ta (oliy va birinchi ligada) professional klub bor (2004). 2ligada 196 ta jamoa shunday makomga erishish uchun mamlakat birinchiligidagi qatnashyapti. Futbol klublari qoshida 18 ta futbol internat maktablari, kollejlari faoliyat ko‘rsatyapti, ularda 2 000 dan ziyod o‘quvchi shug‘ullanadi. Shuningdek, futbolga ixtisoslashgan bolalar-o‘smirlar sport maktablari ishi yaxshilandi. Futbol universiada, „Barkamol avlod“ va „Umid nihollari“ musobaqalari dasturlaridan o‘rin olgan. Bolalar-o‘smirlar o‘rtasida respublikada o‘tkaziladigan „Futbol g‘unchasi“ musobaqalarida 692 jamoada 13 840, „Futbolimiz kelajagi“ musobaqalarida 15035 jamoada 300 700 o‘yinchi ishtirok etdi (2004). Ayollar o‘rtasida o‘tkazilayotgan O‘zbekiston championati va kubogi musobaqalarida Andijonning „Andijanka“, Namanganning „Gulbahor“, Qarshining „Sevinch“ jamoalari yetakchilik qilib keladi. Faxriy futbolchilar o‘rtasida ham muntazam ravishda musobaqalar uyushtiriladi. Jismoniy qobiliyati cheklangan futbolchilar o‘rtasida Toshkentning „Matonat“ jamoasi (hozirgi „Baynalmilal“) jahon kubogini qo‘lga kiritgan (1991). Hozirgi kunda respublikada 362 ta stadion, 7 113 ta futbol maydoni mavjud, 460 658 kishi (ulardan 4 642 nafari ayollar) futbol bilan shug‘ullanadi, 1916 nafar murabbiy faoliyat ko‘rsatadi (2004). „O‘zbekiston futboli“ (Toshkent), „FutbolEkspress“ (Andijon), „Asr futboli“ (Namangan), „Inter futbol“ (Kosonsoy), „Boks plyus futbol“ (Toshkent) kabi ixtisoslashgan gazetalar chiqib turibdi. S. Arutyunov, Ye. Valitskiy, A. Keller, M. Akbarov, R. Akramov, Yu. Sarkisyan, M. Rahimov kabi murabbiylarning o‘zbek futbol i ravnaqida xizmati katta. I. Toshmuhamedov, A. Imomxo‘jayev, B. Belozyorov, N. Rizametov, B. Haydarov singari tajribali hakamlar ishini davom ettirayotgan R. Ermatov va I. Kutsillo rasmiy nufuzli xalqaro musobaqalarni boshqarishdi.

**Futbol to‘pi** futbolda o‘ynaluvchi sharsimon to‘pdir. Futbol qoidalariga ko‘ra to‘pning aylanasi 68-70 sm, massasi 410—450 g, ichki havo bosimi 55-80 kPa, usti charm yoki shunga o‘xshash material bilan qoplangan bo‘lishi zarur.<sup>[1]</sup>

Futbol to‘plarini bir qolipga keltirish 1863-yilda, to‘plarning qanday bo‘lishi haqidagi qoidalar joriy etilishi bilan boshlandi. 1872-yili bu qoidalarga

o‘zgartirishlar kiritildi. Hozirgi to‘plar 32 yoqli sharsimon ikosaedr shaklidadir, ulardan 12 tasi muntazam beshburchak, 20 tasi muntazam oltiburchakdir.

Ikosaedr va futbol to‘pi Futbol to‘plari avvalboshda bir rangli: jigarrang, oq bo‘lgan. 1960-larda oq-qora televideniyedagi futbol matchlari efirlari uchun to‘plar oq-qora rangga bo‘yala boshlandi. Rangli televideniye yoyilishi bilan bu odat keraksiz bo‘lib qolib, endilikda to‘plar har xil ranglarga bo‘yalmoqda.

**Xulosa:** Hozirgi kunda respublikada 362 ta stadion, 7 113 ta futbol maydoni mavjud, 460 658 kishi (ulardan 4 642 nafari ayollar) futbol bilan shug‘ullanadi, 1916 nafar murabbiy faoliyat ko‘rsatadi (2004). „O‘zbekiston futboli“ (Toshkent), „FutbolEkspress“ (Andijon), „Asr futboli“ (Namangan), „Inter futbol“ (Kosonsoy), „Boks plyus futbol“ (Toshkent) kabi ixtisoslashgan gazetalar chiqib turibdi. S. Arutyunov, Ye. Valitskiy, A. Keller, M. Akbarov, R. Akramov, Yu. Sarkisyan, M. Rahimov kabi murabbiylarning o‘zbek futbol i ravnaqida xizmati katta. I. Toshmuhamedov, A. Imomxo‘jayev, B. Belozyorov, N. Rizametov, B. Haydarov singari tajribali hakamlar ishini davom ettirayotgan R. Ermatov va I. Kutsillo rasmiy nufuzli xalqaro musobaqalarni boshqarishdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shermamatovich M. M. The Role of Physical Education in Our Life //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 63-65.
2. Muratov M. The northern Black Sea: the case of the Bosporan kingdom. – 2015.
3. Хусаинов Ш. Я. и др. ПРЕИМУЩЕСТВА КОМАНДНЫХ ВИДОВ СПОРТА ДЛЯ АДАПТАЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari //Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 6. – №. 1. – С. 47-55.
4. Shermamatovich M. M., Yalgashevich X. S., Muzaffar o’g’li S. A. SPORT KURASHIDA SARALASH: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni

va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 6. – №. 1. – C. 69-75.

5. Yalgashevich K. S., Shermamatovich M. M., Zayniddinovich N. I. The role of physical culture in the life of students //Int J Sci Technol Res. – 2021. – T. 10. – №. 03. – C. 1-4.

6. Shermamatovich M. M. OZBEKISTONDA MILLIY KURASHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 39. – №. 5. – C. 36-41.

7. Муратов М. Ш. ИЗУЧЕНИЕ СТЕПЕНИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 38. – №. 5. – С. 22-27.

8. Муратов М. Ш., ўғли Шерматов А. М. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 186-192.

9. Shermatovich M. M. JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSALARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING JIHATLARI //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 48. – №. 1. – С. 130-132.

10. Shermamatovich M. M. DEVELOPMENT OF WRESTLING SPORTS IN UZBEKISTAN AND AWAKENING OF THE CONCEPT OF PATRIOTISM IN STUDENTS //JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 36-39.

11. Shermamatovich M. M. THE SPORT OF WRESTLING AND THE LAWS OF THE FIELD OF WRESTLING //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 84-88.

12. Shermamatovich M. M. et al. Proposals On Innovative Solutions Of Organizing The Architecture Of Multifunctional Sports Facilities //Journal of Advanced Zoology. – 2024. – Т. 45.

13. Shermamatovich M. M., Aybxonovich T. M. O'QUVCHILARNING FUTBOL BO'YICHA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK TOMONLARINI

O'RGANISH MUAMMOLARI //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 44. – №. 1. – C. 84-87.

14. Shermamatovich M. M. et al. Endurance Formation in General Physical Training Students //International Journal on Integrated Education. – 2021. – T. 4. – №. 3. – C. 356-359.
15. Shermamatovich M. M., Latif T. DEVELOPMENT OF SPORTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 3. – C. 374-377.
16. Shermamatovich M. M., Norkulovich S. K., Tursunovna H. U. PLACE AND ROLE OF PSYCHOLOGICAL AND VOLITIONAL TRAININGIN THE TRAINING PROCESS OF STUDENTS-BOXERS //World Bulletin of Management and Law. – 2022. – T. 8. – C. 141-144.
17. Shermamatovich M. M. Psychological Description Of Sport And Psycological Development Of Sportsmen //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 7-9.
18. Yalgashevich X. S., Shermamatovich M. M. Enhancing Athletes' Regained Performance Through Rational Nutrition //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – 2020. – №. 1. – C. 1-6.
19. Shermamatovich M., Yalgashevich K., Narkulovich S. The development of physical preparedness of student young people //Psychology and Education Journal. – 2021. – T. 58. – №. 1. – C. 2699-2704.
20. Shermamatovich, M. M., Tursunovna, H. U., Zayniddinovich, N. I., Boltayevich, A. S., & Yalgashevich, K. S. (2021). Physical education of student youth in modern conditions. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(2), 1589-1593.